

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TILLARNING O'RNI VA DOLZARBLIGI

*Fayzullayeva Nodira*

*Shahrisabz davlat pedagogika*

*Institute 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining ta'lism tizimida xorijiy tillarning tutgan o'rni , ularning strategik ahamiyati, davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, zamonaviy metodik yondashuvlar , xalqaro va milliy sertifikat tizimi , raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar va xalqaro hamkorlikdagi integratsiya jarayonlari yoritib beriladi . Shuningdek Rivojlanayotgan O'zbekiston Respublikasi ta'lism tizimida xorijiy tillarni o'rganish zaruratdan tashqari, taraqqiyot uchun muhim poydevor ekani asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lism to'g'risidagi qonun, xorijiy tillar, davlat ta'lism tizimi, raqobatbardosh kadrlar, xalqaro va milliy sertifikat( CEFR , IELTS, TOEFL va boshqalar), xalqaro hamkorlik , madaniyat.

**Kirish.** Har bir davlat singari O'zbekistonda ham o'z ta'lism tizimi va ta'lism turlari mavjud. Ularga mos davlat qonunlari va rivojlantirish uchun yangidan-yangi strategiyalar qabul qilinmoqda . O'zbekiston Respublikasi ta'lism tizimida ham ma'lum ta'lism turlari bor va ular quyidagilardir.O'zbekiston Respublikasining Ta'lism to'g'risida qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi ta'lism tizimida Ta'lism turlari quyidagilardan iborat:

- 1.maktabgacha ta'lism va tarbiya;
2. umumiyo o'rta va o'rta maxsus ta'lism;
3. professional ta'lism;
- 4.oliy ta'lism;
- 5.oliy ta'lismidan keyingi ta'lism;
- 6.kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- 7.maktabdan tashqari ta'lism.

Yuqorida keltirilgan ta'lism turlari " Ta'lism to'g'risidagi qonunning 7- muddasida keltirilgan. Bu ta'lism turlari bir-biriga uzviy bog'langan va bu yo'nalishlar uchun alohida -alohida davlat ta'lism standartlari mavjud o'qitish jarayonida.

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xalqaro aloqalarning kengayishi va fan- texnika yutuqlarining integratsiyalashuvi xorijiy tillarni bilishni zaruriy ehtiyojga aylantirdi. Ayniqsa , rivojlanayotgan davlatlar , jumladan O'zbekiston uchun xorijiy tillarni chuqur o'zlashtirish, ularni ta'lism tizimiga tadbiq

etish global maydondagi pozitsiyasini mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi kunda yurtimiz qanchalik rivojlanib borayotgan sari, chet tillariga bo‘lgan talab shunchalik ortib bormoqda. Buning samarasida ko‘pchilik yoshlar chet tillarini o‘ziga xos qiziqish va ishtiyoq bilan o‘rganishmoqda. Bu jarayon esa bizni yanada yuksalishimizga yordam beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “ Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug’i, bilmagani muammo”.

So‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘rganishga oid siyosiy-huquqiy asoslar yaratilib, ularning amalda tatbiq etilishi ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli Prezident qarori asosida xorijiy tillarni o‘rganishning yangi bosqichi boshlab berildi. Bu hujjat asosida maktabgacha ta’limdan boshlab oliv ta’limgacha xorijiy tillarni o‘rgatish majburiy va tizimli tus oldi. Shu sababdan bolalarga bog’cha yoshidan boshlab xorijiy tilarni tanishtirish va bu tillarni turli xil yo’llar va metodlar bilan chet tillarni o‘rgatish kabi samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ya’ni bola maktab yoshiga qadar chet tili bo‘yicha biroz bilimga ega bo‘lib, keyinchalik maktabdan osonlik bilan shu tilni chuqurroq bilishi mumkin , bu amalda amalga oshirilayotgan islohotlar hisoblanadi. Eng asosiysi, bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganish bizga juda katta imkoniytlar eshigini ochib bermoqda. Ya’ni siz bironta chet tilini bilsangiz, sizda yangi insonlar bilan tanshish, yangi do’stlar, hamkasblar orttirish va chet ellik shaxslar bilan birga ishlash bilan erkin so’zlashuv qilish imkoniyati yaratiladi. Chet tillarni o‘rganishning yana bir ustunlik tomoni shundaki, chet tilini bilish sizning kognitiv va tahliliy qobiliyatizingizni yuksaltirishga katta yordam beradi. Hozirgi kunda chet tillarni o‘rganishning turli xil yo’llari va metodlari yaratilmoqda. Masalan: innovatsion metodlar yordamida talabalar tezroq va samarali tarzda yangi til ko‘nikmalarini egallaydilar. Shuningdek , o‘yinlar va interaktiv faoliyatlar orqali talabalar bir-biri bilan muloqot qilib, tilni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shu sababli ,chet til ta’limi jarayonida talabalarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda fan o‘qituvchisidan mohirlik talab etiladi.

O‘rta maxsus, professional, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’limga kirishda tan olinadigan xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro sertifikatlar:

- 1) ta’lim tashkilotlarida ayrim maxsus fanlardan o‘quv mashg‘ulotlarini olib borayotgan pedagog xodimlarning lavozim maoshlariga belgilangan tartibda ustamalar beriladi;
- 2) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarining kamida C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega chet (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, hind) tili fani o‘qituvchilariga navbatdagи majburiy attestatsiyada mutaxassislik fani va kasb

standarti bo'yicha bilim darajasini aniqlash hamda o'quv fani bo'yicha malaka sinovidan maksimal 80 ball beriladi hamda ular ushbu malaka sinovidan ozod etiladi; 3) oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarga ustama belgilashda qo'llaniladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ularning mashg'ulot olib boruvchi faniga mos bo'lishi lozim; 4) amal qilish muddati cheklanmagan (belgilanmagan) sertifikatlar uchun sertifikat olingan kundan boshlab uch yildan ko'p bo'limgan vaqt mobaynida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ustama qo'llaniladi; 5) umumiy o'rta ta'lim muassasalariga xorijiy tillar o'qituvchilari lavozimlariga ishga yangi qabul qilinayotgan talabgor kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikatga ega bo'lishi lozim; 6) mazkur qaror kuchga kirgunga qadar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq olingan sertifikatlarga ularning olingan kundan boshlab amal qilish muddati tugagunga (muddati cheklanmagan (belgilanmagan) sertifikatlar uchun sertifikat olingan kundan boshlab uch yildan ko'p bo'limgan vaqt mobaynida) qadar ustamalar qo'llaniladi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglardan Teaching Knowledge Test (TKT), Teaching English for Speakers of Other Languages (TESOL), Teaching English as a Foreign Language (TEFL), Teaching English as a Second Language (TESL) sertifikatlari Common European Framework of Reference (CEFR) tizimining B2 sertifikati bilan birgalikda qabul qilinadi va ularga ustama belgilangan tartibda to'lanadi. Barcha Teaching English for Speakers of Other Languages (TESOL), Teaching English as a Foreign Language (TEFL), Teaching English as a Second Language (TESL) sertifikatlari o'qituvchi (trener) bilan kamida 100 kontakt soat shug'ullanishi va kamida 40 soatlik o'qituvchi-pedagogik amaliyotini qamrab olishi, bunda amaliyot qismi instruktor tomonidan kuzatilib baholanishi zarur. Amal qilish muddati cheklanmagan (belgilanmagan) sertifikatlar uchun sertifikat olingan kundan boshlab uch yildan ko'p bo'limgan vaqt mobaynida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyoz qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 395-son qaroriga muvofiq, test sinovlari (kasbiy (ijodiy) imtihon) majmuasiga chet tili (ingliz, nemis, fransuz, ispan, turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur, italyan, yapon tillari) (keyingi o'rinnarda chet tili deb ataladi) birinchi (asosiy) fan sifatida kiritilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirgan, TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va hokazo xalqaro sertifikatga ega bo'lgan abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball beriladi. 2020/2021 o'quv yilidan boshlab test sinovlari (kasbiy (ijodiy) imtihon) majmuasiga chet tili fani

kiritilgan barcha bakalavriat ta'lif yo'nalişlariga hujjat topshirgan va milliy yoki xalqaro sertifikatning quyidagi darajalariga ega bo'lgan abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball beriladi. Bundan tashqari chet tillarni bilgan har qanday shaxs hozirgi zamонавиy dunyoda o'z o'rmini topoladi. Zamонамиз ham ko'п tillarni biladigan va sog'lom fikrli shaxsga ehtiyoji bor. Bu shaxslar albatta raqobatbardosh kadr sifatida tan olinadi .Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chet tili bilishinson miyasining fikrlash tezligini oshiradi, kreativlikni kuchaytiradi va analitik qobiliyatlar nimustahkamlaydi. Bundan tashqari, chet tillarini o'zlashtirish shaxsni boshqa tillardagi boy ilmiyva badiiy manbalar bilan tanishtiradi, natijada uning intellektual salohiyati yanada kengayadi.Dunyo miqyosidagi yirik ilmiy tadqiqotlar, yangi texnologiyalar va innovatsionishlanmalarning aksariyati chet tillarida amalga oshirilmoqda. Ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar vadarsliklarning yetakchi qismi ingliz, nemis, fransuz yoki xitoy tillarida yaratiladi. Shu sababli, chettolini bilish zamонавиy ilm-fan olamiga yo'l ochadi, ilmiy hamkorlikni rivojlantiradi va yangiyutuqlarni milliy iqtisodiyotlarga integratsiya qilish imkonini beradi. Bugungi raqamli iqtisodiyotsharoitida chet tillarini bilish karyera muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biriga aylangan.Xalqaro biznes amaliyotida faol ishtirok etish, chet elda malaka oshirish vannovatsiyalarni yurtga olib kirish uchun chet tili bilimi strategik qurol hisoblanadi. Shuningdek,davlatlar o'zining eksport salohiyatini oshirish va turizm industriyasini rivojlantirishda chettillarini o'rganishni keng targ'ib qiladi, bu esa milliy iqtisodiyotning diversifikasiyasiga xizmatqiladi. Bugungi dunyo ko'п qirrali madaniy makon sifatida shakllangan bo'lib, unda millatlararo hamkorlik va tinchlikni ta'minlashda chet tillarining o'rni beqiyosdir. Chet tillarini o'rganish nafaqat insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, balki ularni boshqa madaniyatlarini anglash va hurmatqilishga undaydi. Bu esa dunyoqarashni kengaytirish, milliy manfaatlarni xalqaro miqyosda himoya qilish va yangi diplomatik aloqalarni mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi Yuqoridagi keltirilgan va joriy qilinayotgan islohotlar bekorga emas barchasi yirtimiz ravnaqiga ulkan hissa qo'shish va rivojlantirish uchun katta asos bo'ladi.beradi. Shu bilan bir qatorda madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi, jahon xalqlarining bir-birlarini tushunishiga yordam beradi va jahon miqyosida barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Chet tili, madaniyatlararo almashinuvning asosiy vositasi sifatida, insonlar o'rtasida hurmat va mehr-oqibatni rivojlantiradi. Chet tillarini o'rganish kelajakda ham global rivojlanishning ajralmas qismiga aylanadi.

**Xulosa.** Chet tillarini o'rganish shaxsning intellektual salohiyatini kengaytirib, uning fikrlash qobiliyatini va kognitiv jarayonlarini yanada rivojlantiradi. Ko'п tilli shaxslar, bir tilni o'rganish orqali boshqa madaniyatlarini, qadriyatlarini va dunyoqarashlarni anglab, o'zlarining ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishlarini yangi darajaga olib chiqadilar. Chet tillari, shuningdek,jamiyatlar o'rtasida madaniy

farqliliklarga hurmatni oshirishga yordam beradi, bu esa jamiyatdagi integratsiya va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ko'p tilli odamlar o'zaro muloqotqilishda ancha ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lib, ijtimoiy muammolarga hal qiluvchi yondashuvlar topa olishadi. Bu esa butun jamiyatning o'zaro hurmat, barqarorlik va farovonlikka asoslangan rivojlanishiga yordam beradi. Chet tillari globallashuv jarayonida xususiy va davlatlararo aloqalar uchun zarur vosita sifatida qaraladi. Tashqi siyosat, iqtisodiy hamkorlik, ilmiy va madaniy almashinuvda muvaffaqiyatga erishish uchun chet tili bilishning ahamiyati tobora ortmoqda. Shu bilan bir qatorda Yurtimiz yoshlarining xalqaro darajadagi kadrlar tayyorlashda va yaxshi kadrlarga ega bo'lishida muhimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mamadiyorova M.M. (2024). Xorijiy Tillarni O'Qitishda Mustaqil Ta'limning
2. Kommunikativ-Pedagogik Tamoyillari. Miasto Przyszlosci, 53, 95–98. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4760v>
3. Raxmatova Dilnavoz Abdimuradovna.(2023).Xorijiy tillarni oqitishning zamonaviy metodlari(Nemis tili).Pedagogs, 46(1), 156–158. Retrieved from <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/164>
4. Sabirjonova , D.(2023).Ingliz tilini o`qitishda zamonaviy pedagog texnologiyalari.Golden Brain, 1(1), 281–286. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1199>
5. <https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-darajadagi-kadrlar-chet-tillarni-puxta-bilishi-muhim>
6. <https://president.uz/oz/lists/view/346833734.NURQULOV>
7. <https://kun.uz/57584426#!>